

**JURNALISTIK SURISHTRUVINING JANR SIFATIDA SHAKLLANISHI**

*Jahonova Malika Ibodullo qizi*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy*

*kommunikatsiyalar universiteti*

*Jurnalistika yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Media industriyasining globallashuvi va “yangi media”ning faol rivojlanishi jurnalistikaning eng murakkab tahliliy janrlaridan biri – jurnalistika surishtiruvda jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Shu munosabat bilan jurnalistik surishtruvining taraqqiyot tendensiyasi faol rivojlanmoqda va bloglar va ijtimoiy tarmoqlarning janr evolyusiyasiga ta'siri tobora ko'proq sezilib bormoqda. Bundan tashqari, soxta psevdo-tekshiruvlar muammosi tobora kuchayib bormoqda, tomoshabinlar ko'pincha ularni jiddiy, haqiqatga asoslangan materiallar deb xato qilishadi.

**Kalit so'zlar:** Tergov jurnalistikasi, fosh qiluvchi jurnalistika, taraqqiyot tendensiyasi, OAV, transformasiya.

Ommaviy axborot vositalariga oid darslik, qo'llanma, turli tadqiqotlarda jurnalistika janrlarini uch guruhga bo'lib tahlil qilinadi:

1. Axborot (informatsiya) janrlari (xabar, hisobot, intervyu, reportaj).
2. Tahliliy (analitik) janrlar (korrespondensiya, maqola, taqriz, kuzatish, sharh)
3. Badiiy- publisistik janrlar (lavha, ocherk, feleton, pamflet, esse, xat).

Albatta, bu tarzda guruhlariga ajratish shartli ekanligini, o'rganish, tahlil, tadqiq etish qulay bo'lishi uchun qabul qilinganligini unutmaslik lozim. Negaki, hodisa qonundan boyroq, miqyosi kengroqdir. Jurnalist surishtruvi yuqorida sanab o'tilgan janrlardan biri bo'lib tahlil va chuqur muallif yondashuviga ko'ra ajralib turadi. Har qanday jurnalistik tekshiruvning asosi ommaviy axborot vositalari

mutaxassislari tomonidan qo'llaniladigan turli texnika va texnologiyalarni o'z ichiga olgan tizimdir. Materialning sifati, axborotning ishonchlilik darajasi, auditoriya tomonidan xabardorlik va idrok etish darajasi jurnalistik surishtiruvni olib borish jarayonidagi usullarga bevosita bog'liqdir. Yangi texnologiyalar va axborot makonidagi tez o'zgarib borayotgan tendensiyalar sharoitida jamoatchilik uchun yuqori yangilik qiymatiga ega bo'lishi qiyin bo'lgan axborotni izlash, o'zgartirish, tizimlashtirish va efirga uzatishning yangi usullari paydo bo'lmoqda. Faktlarni o'rganish va ulardan qanday foydalanishni bilish jurnalistlar uchun ham, kitobxonlar uchun ham zarurdir. Siz tushunishingiz kerak bo'lgan birinchi narsa - ma'lumotni olish, qayta ishlash va nashr etishning qaysi usullari eng samarali ekanligi. Shuningdek, axborot makonida harakat qilish, ommaviy axborot vositalarida olingan ma'lumotlarning to'g'riligi va obektivligiga ishonch hosil qilish, jurnalistik surishtiruvlarda professional yondashuv bilan havaskorlik o'rtasidagi farqni ajratish ham muhimdir. O'zbek matbuotida jurnalist surishtiruvi asosan 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlaridan rivojlana bordi. Harbiy xizmatda askar yigitlar o'rtasidagi "dedovshina" haqida hikoya qiluvchi jurnalist Karim Bahriyevning "Oy borib, omon qaytmagan bolam", inson o'zligi va avlodlar ma'naviyatining izdan chiqishida sobiq sho'rolar hukumati siyosatini oshkor qiluvchi Halim Sayyidning "Tanazzul" surishtiruvlari o'sha davr o'zbek jurnalistikasida muhim voqelik sifatida e'tirof etildi. O'tgan asrning oxiri va yangi asrda o'zbek jurnalistikasida surishtiruv olib boruvchi jurnalistlarning guruhi shakllandi. Jumladan: Abdunabi Haydarov, Bekqul Egamqulov, Habibulla Olimjonov, Tursunali Akbarov, Ziyoda Ashurova, Husan Nishonov, Behzod Shukurov, Behzod Bozorov, Anvar Suyunov va boshqa jurnalistlar jamiyatda mavjud bo'lgan qonunbuzarliklar, qallobliklar, firibgarliklarni ochish orqali o'zbek jurnalistikasida surishtiruv janrining rivojlanishi va shakllanishiga hissa qo'shdilar. So'nggi o'n yil ichida Buyuk Britaniya va AQSHda jurnalistik surishtiruvlar nufuzli, izlanuvchan nashrlarda tez-tez chop etilib kelinmoqda. Biroq, bu asrda AQSH va Buyuk Britaniyada jurnalistik surishtiruv jiddiy

muammolarga duch keldi, birinchisi iqtisodiy xususiyatga ega, ikkinchisi internet va jurnalistikaning yangi shakllarining tarqalishi oqibatlari bilan bog'liq.

Televideniye da iqtisodiy muammolar qimmat va uzoq davom etadigan tekshiruvlar hamda loyihani yaratishda yetarlicha mablag bo'lmasligi bunga sabab bo'ldi. Amerika ommaviy axborot vositalarining biznes modeli so'nggi yillarda sezilarli darajada o'zgardi. Ommaviy axborot vositalari kompaniyalari byudjet mablag'larini aniq biznes loyihalarning foydasi va'da qilgan taqdirdagina sarflaydi va keyin daromadning katta qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga emas, balki ko'chmas mulk yoki boshqa sohalarga investitsiya qiladi. Natijada nisbatan yuqori xarajat va natijalarini oldindan aytish qiyin bo'lgan jurnalistik tergov eng ko'p zarar ko'radi. 2020-2021 yillar davomida Amerika ommaviy axborot vositalari tahririyatlarida faqat jurnalistika surishtiruviga bag'ishlangan bo'limlar tugatildi, ko'plab byurolar yopildi, hokimiyat, ishbilarmonlar va boshqa muhim shaxslarni kuzatgan 25 mingga yaqin jurnalist ishdan bo'shatildi. Buyuk Britaniyada esa, "The Sunday Times" gazetasining sobiq muxbiri Nik Fildingning so'zlariga ko'ra, 'jiddiy jurnalistik surishtiruvlar juda kam olib borilmoqda'. Natijada, 2000-yillardan beri an'anaviy ommaviy axborot vositalarning jiddiy tergovchi jurnalistlar soni 150 dan 90 ga kamaydi. Hozirgacha bu ko'rsatkich davom etmoqda .

Jurnalistik tekshiruv – bu jamiyat muammolari, korrupsiya, qonun buzilishi, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish yoki ilgari biron sababga ko'ra jamoatchilik tomonidan sir saqlanib qolgan ma'lumotni ochib beradigan jarayon hisoblanadi.

O'zbekistonda senzura bekor qilingan bo'lsa-da, 2005-yildan boshlab yuqori martabali ma'murlar hamda bosh muharrirlarda ichki senzura keskin kuchaydi. Natijada, matbuotda tanqidiy, tahliliy maqolalar, jurnalist surishtiruvi janri asta-sekin kamayib bordi. Shu yillarda jurnalistlar o'tkir mavzudagi maqolalarni chop etishdagi rahbarlarning ehtiyotkorligiga uchrayvergach, o'zlari ham muammolarni chetlab o'tadigan bo'ldilar. Faqat 2017-yildan matbuotimiz yana jonlandi. Televideniye, radio, bosma nashrlar so'z va matbuot erkinligidagi siyosiy islohotlar, avvalo,

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning OAV ahliga qilgan bir necha murojaat va tanqidlaridan so'ng, jumladan, jurnalist surishtiruvi janrida ham o'nlab dolzarb mavzular tadqiq qilindi.

Biroq hozirchi?...

Jurnalist surishtiruvi muallifdan g'oyat chuqur va hartaraflama bilim talab qiladi. Bu janrda ijod qilish uchun sof qalb va halol qo'lning o'zi kifoya qilmaydi. Ularga huquqiy kafolat, axborot ta'minotining ko'magi, muharrir qo'llovi ham kerak.

Senzura bekor qilinganining o'zi jurnalist uchun huquqiy kafolat bo'la olmaydi. Haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat" bo'lish, davlat boshqaruv institutlari faoliyati, barcha darajadagi amaldorlarning korrupsion harakatiga qarshi samarali kurashish uchun jurnalistga qonunda kafolatlangan huquqlar kengaytirilishi lozim.

Birinchidan, biron-bir tahririyatda muallifni axborot ta'minoti bilan qo'llovchi xizmat lavozimi yo'q. Surishtiruv olib borayotgan jurnalist "yakka ovchiga o'xshaydi. Informasion texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyatdagi ochilish va OAVlar moddiy imkoniyatini uyg'unlashtirib jurnalist surishtiruvi olib borayotgan xodimni qo'llab-quvvatlash vaqti keldi.

Ikkinchidan, bosh muharrirdagi ichki senzura chek qo'yish lozim. Buning uchun, avvalo, OAVlarning iqtisodiy erkinligiga erishish talab qilinadi. Shularga qaramay, jurnalist surishtiruvi OAV janri sifati asta-sekin ijtimoiy hayotimizdan kengroq o'rin topmoqda.

Jurnalist surishtiruvi odamlar, hujjatlar va shaxsiy kuzatuvlar kabi bir qator manbalar asosida olib boriladi. Ko'pincha jurnalist surishtiruvi jarayonida hukumat vakillari oshkor etilishini xohlamaydigan axborotlar yuzaga chiqishi mumkin. Ammo ba'zida materialda bevosita hukumat vakillaridan olingan axborot ham o'rin olgan bo'ladi. Jurnalistlarning jamiyatga xolis xizmat qilish va haqiqat uchun kurashish istagi ularni surishtiruv olib borishdan ko'zlangan asosiy maqsadidir. Aynan shu maqsad jurnalist surishtiruvining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan xolislikni yuzaga

keltiradi. Surishtiruv davomida jurnalistlar foydalanadigan manbalarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Birinchisiga, jurnalist uchun zarur axborotga ega shaxslar kiradi. Masalan, guvohlar, biron bir axborot (xat, arxiv, hujjat, kundalik va h.k) ni saqllovchi odamlar. Bunday insonlardan axborotni olish ularning xohish-istagi, qolaversa, jurnalistning ularni ishontira olish qobiliyatiga bog'liq. Lekin jurnalist uchun ikkinchi guruhga kiruvchi manbalardan foydalanish nisbatan samaraliroq bo'ladi. Ular ommaviy axborot vositalari bilan bo'lgan o'zaro aloqasi qonun tomonidan nazorat qilinadigan turli tashkilot va muassasalardir. Surishtirilayotgan mavzuning rivoji (surishtiruv jarayoni, shartlari, voqealar ketma-ketligi, erishilgan natijalarning bayoni) syujeti bo'lishi shart emas. Sababi, maqsad axborot uchun emas, balki yig'ilgan axborot surishtiruv ishidan ko'zlangan maqsad uchun xizmat qilishi kerak. Xolislik, haqqoniylik va fikr aniqligi faoliyat jarayonida jurnalist-surishtiruvchi pozitsiyasini belgilab beruvchi asosiy tamoyillar hisoblanadi. Surishtiruv materiali biron masala yoki muammoni mavjud bo'lgan barcha qarashlar nuqtai nazaridan o'rganib chiqilgandagina yuqoridagi talablarga javob beradi. Shu bois, jurnalist surishtiruvining o'ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo'ladigan mazkur tamoyillarga amal qilgan G'arb matbuoti bu borada ancha ilgarilab ketdi. Keng qamrovli va har tomonlama surishtiruv o'tkazish uchun esa mavzuni turli xil manbalar asosida o'rganish zarur. Surishtiruv materialida albatta, faktlar, manbalar, qarashlar, qarshi fikrlar, hatto isbot va dalillar ham berilishi zarur. E'tiborli tomoni shundaki, ularning barchasi o'zaro muvozanatda bo'lishi, birortasi boshqasidan oshib ketmasligi kerak. Muallifning his-tuyg'ulari orqali emas, balki materialning tuzilishi, tizimlilikiga qarab mantiqiy yondashuv namoyon bo'lishi talab etiladi. Xalqaro jurnalistlar federatsiyasi tomonidan qabul qilingan deklaratsiyada aynan jurnalist-surishtiruvchilar faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan bir nechta muhim qoidalar belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Haqiqat va jamiyatning undan xabardor bo'lish huquqini hurmat qilish jurnalist oldida turgan asosiy burch hisoblanadi.

2. Kasbiy faoliyatini olib borayotgan jurnalist axborotni haqqoniy yo'l bilan izlash va uni e'lon qilish erkinligi, hamda xolis izoh va tanqid huquqini himoyalashi, ularga amal qilishi lozim.

3. Jurnalist o'ziga ma'lum bo'lgan manba bilangina ishlashi kerak. U muhim axborotni e'tibordan chetda qoldirmasligi va hujjatlarni soxtalashtirmasligi kerak.

4. Axborot, surat va hujjatlarni izlayotganda jurnalist xolis va haqqoniy usullardan foydalanmog'i zarur.

5. Jurnalist jiddiy zarar yetkazadigan axborotdan iloji boricha to'g'ri foydalanishi yoki undan umuman foydalanmaslikka harakat qilgani ma'qul.

Bugungi kunga kelib jahon jurnalistikasida surishtiruvning o'ziga xos rivojlanish tendensiyalari ham shakllandi. Ular quyidagilar: mavzuni har tomonlama o'rganish; surishtiruv ishida berilayotgan fakt va axborotning xolis va haqqoniyligi; jamoatchilik hayotiga ta'sir etadigan, biroq maxfiy saqlanishga urinayotgan axborotni oshkor etish; manbalar izchilligi va rang-barangligi; manbalarning sir tutilishi va himoya qilinishi; dolzarb mavzuni tanlash va ommaviy axborot vositalarida yoritish bilan cheklanmay, uning dolzarbligini ishonchli fakt va ma'lumotlar orqali isbotlab bera olish; jurnalist-surishtiruvchi sudya vazifasini bajarmasligi, aksincha, surishtiruv jarayonida to'plangan axborotni berish bilan xulosa yoki hukmni chiqarishni ommaga qoldirish; ma'lum bir (jamoatchilik yoki o'ziga tegishli) qarashni berish emas, balki faktlarga asoslangan materialni ommaga taqdim etish zarur va hokazo.

Yetakchi jurnalistlar tamal toshi qo'ygan surishtiruv janri an'analari, zamonaviy jurnalist surishtiruvi tamoyillari va uslublarini yosh jurnalist avlod tomonidan o'rganish va o'zlashtirish jamiyat uchun muhim, ayni paytda murakkab hisoblangan surishtiruv janrining rivojiga turtki bo'luvchi asossiy omillardandir. Bundan tashqari, hozirda jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar, vujudga kelayotgan yangi g'oyalar, insoniyatning axboriy jamiyatga intilishlarini anglab, ularni to'g'ri

talqin qilib, axborotdan to'g'ri foydalanadigan jurnalistlarni tayyorlash zarurati yaqqol sezilmoqda.

Jurnalist surishtiruvi alohida turi sifatida o'ziga xos xususiyatlariga ega. Janr sifatida o'z o'rnini topguniga qadar jurnalistning haqiqatni oshkor etishga bo'lgan urinishlari "jurnalist tadqiqot" tushuncha orqali ifodalangan. Shu sabab, surishtiruv ishini olib bormoqchi bo'lgan jurnalist ko'p hollarda jamiyat hayotidagi kundalik muammolar tahliliga bag'ishlangan materiallarni to'plash bilan kifoyalanib qolgan. Ta'kidlash zarurki, ba'zi G'arb OAV bo'yicha mutaxassislarining fikriga ko'ra, investigeytorlik, ya'ni surishtiruv ishini olib borish va tahliliy jurnalistika bir xil faoliyat turi hisoblanadi. U to'plagan material mantiqan yoki tahliliy, yoki tanqidiy maqola, yoki muammoli ocherk yoki felyetonga yaqin bo'lgan.

Boshqacha qilib aytganda, mohiyatan surishtiruv ekanligi aniq bo'lsa-da, mazkur turdagi material jurnalist surishtiruvi natijasi sifatida qabul qilinmas edi.

Hozirda esa jurnalist surishtiruvi o'z predmeti, maqsadi, vositalari, usullari, amalga oshirish shart-sharoitlari orqali mustaqil bir janr sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Ehtimol, surishtiruv olib borgan jurnalist jurnalistlik tekshiruvini o'tkazishda shunga o'xshash muammolarga duch kelishi mumkin. Ya'ni, jurnalistga qarshi jinoiy yoki ma'muriy ish qo'zg'atilishining har doim huquqiy xavfi mavjud. Boshqa xatarlar va tahdidlar jurnalistning obro'siga, ishiga va sog'lig'iga yoki shaxsiy hayotiga doir bo'lishi mumkin. Har qanday surishtiruvchi jurnalist uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni minimallashtirish uchun jurnalistik tekshiruv o'tkazishda yuqoridagi sxemaga rioya qilishni unutmaslik kerak.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytib o'tilgan har bir yondashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bor degan xulosaga kelishimiz mumkin. Biroq, sanab o'tilgan usullar orasida qo'llanilganda aniqroq va ishonchli ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan usullar mavjud. Shunday qilib, hujjatlar va ma'lumotlar jurnalistikasi bilan

ishlash bugungi kunda jurnalistik surishtiruvlarda ma'lumotlarni olish va qayta ishlashning eng samarali usullari hisoblanadi. Tajriba, kuzatish va hatto so'rov lar kabi usullar inson omili tufayli u qadar sifatli va ishonchli natijalarni bermaydi, bu esa tergov jarayonida xatolik ehtimolini yaratadi.

Bundan tashqari, hujjatlar bilan ishlash, asosiy va ikkinchi darajali materiallarni tahlil qilish allaqachon kompyuter dasturlari uchun navbatdagi maqsadga aylandi. Bugungi kunda matn tahlilini o'tkazish va kontentning ma'nosini etkazish uchun ko'plab raqamli resurslar mavjud. Shunday qilib, zamonaviy raqamli texnologiyalar allaqachon jurnalistika surishtiruvida asosiy o'rinni egallab, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va uni samarali qayta ishlash imkonini beradi, deb aytishimiz mumkin.

Ular jurnalistlarga ma'lumotlarni tahlil qilish, qidiruv va faktlarni tekshirish, yashirin ma'lumotlar va aloqalarni aniqlash uchun bebaho vositalarni taqdim etadi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, inson kapitali taqdim etadigan tanqidiy fikrlash, tajriba va chuqur bilimlarsiz yuqori sifatli jurnalistik surishtiruvlarni amalga oshirish imkonsiz bo'lib qolmoqda, ya'ni bu xavfli, ammo tanqidiy faoliyat insoniy vazifa bo'lib qolmoqda. O'z materialingizni auditoriyaga taqdim etishning yagona yo'li uni Internetda nashr etishdir. Jurnalistik surishtiruvlarning kelajagida uchta hodisa eng muhim rol o'ynaydi: notijorat tashkilotlarning rivojlanishi, yangi texnologiyalar va Internet. Bu omillar allaqachon tergovchilarga hamkorlikka e'tibor qaratishga, matnlar sifatini yaxshilash uchun ma'lumot almashish shakllarini yaratishga va pullik ish o'rinlarini yaratishga yordam berdi. Shunday qilib, ommaviy axborot vositalarini tekshirish ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar ta'sirida o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, shu bilan birga zamonaviy dunyoda jurnalistikasining eng mashhur yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jurnalist surishtiruvi. qisqacha ta'rif va tavsiyalar. T.: 2002y. (Urush va tinchlikni yoritish instituti). 21 bet.
2. <https://school.cabar.asia/uz/video/gulafshon-sokieva-jurnalistik-surishtiruv-nima-va-uni-qanday-amalga-oshirish-kerak/>
3. <https://www.uzbekembassy.in/jurnalistik-surishtiruvning-meyoriy-chegaralari-qayerda/?lang=uz>
4. <https://soff.uz/product/ona-tili-jurnalistik-surishtiruv-janriga-qoyiladigan-talablar>